OLIY TA’LIMDA TALABALAR ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING GURUHLI HAMKORLIK VA ILMIY MUNOZARAGA ASOSLANGAN SHAKLLARI

Xamroyeva Feruza Asrorovna
hamroyeva87@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning guruhlar va diskussiyaga asoslangan shakllari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik ilmiy izlanish guruhlari, ilmiy diskussiya va kooperativ tadqiqot shakllarining didaktik imkoniyatlari ochib beriladi hamda ularning talabalarda ilmiy tafakkur, dalillash, bahs-munozara madaniyati va reflektiv yondashuvni shakllantirishdagi roli asoslanadi. Xalqaro pedagogik tajriba misolida “buzz groups”, “documentary groups”, “syndicates”, “self-assessing groups” kabi guruh formatlarining metodik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, guruhli va diskussion faoliyatning samaradorligi, ularning cheklovlari hamda o‘qituvchining metodik boshqaruvdagi vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishda mazkur shakllarning yuqori didaktik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-tadqiqot faoliyati, kichik guruhlar, ilmiy diskussiya, kooperativ tadqiqot, metodik boshqaruv, oliy ta’lim.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, ОСНОВАННЫЕ НА ГРУППОВОМ СОТРУДНИЧЕСТВЕ И НАУЧНОЙ ДИСКУССИИ

Аннотация. В статье с научно-методических позиций анализируются групповые и дискуссионные формы организации научно-исследовательской деятельности студентов в системе высшего образования. Раскрываются дидактические возможности работы в малых исследовательских группах, научной дискуссии и кооперативного исследования, а также их роль в формировании научного мышления, культуры аргументации, дискуссии и рефлексивного подхода у студентов. На примере международного педагогического опыта рассматриваются методические особенности таких форматов групповой работы, как “buzz groups”, “documentary groups”, “syndicates”, “self-assessing groups”. Особое внимание уделяется анализу эффективности групповой и дискуссионной деятельности, их ограничениям и методической роли преподавателя в управлении исследовательским процессом.

Полученные результаты подтверждают высокий дидактический потенциал данных форм в организации научно-исследовательской деятельности студентов.

Ключевые слова: научно-исследовательская деятельность, малые группы, научная дискуссия, кооперативное исследование, методическое управление, высшее образование.

ORGANIZING STUDENT RESEARCH IN HIGHER EDUCATION: FORMS BASED ON GROUP COLLABORATION AND SCIENTIFIC DEBATE

Abstract. This article provides a scientific and methodological analysis of group-based and discussion-oriented forms of organizing students' research activities in higher education. The study examines the didactic potential of small research groups, academic discussion, and cooperative research, highlighting their role in developing students' scientific thinking, argumentation skills, discussion culture, and reflective approaches. Based on international pedagogical experience, the methodological features of group formats such as "buzz groups", "documentary groups", "syndicates", and "self-assessing groups" are explored. The article also analyzes the effectiveness and limitations of group and discussion-based activities, as well as the instructor's role in methodological guidance and regulation. The findings demonstrate that these forms possess a high didactic potential for the effective organization of students' research activities in higher education.

Keywords: research activity, small groups, academic discussion, cooperative research, methodological management, higher education.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish masalasi pedagogik nazariya va metodikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatning ilmiy-innovatsion rivojlanishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablar bitiruvchilarda nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni ilmiy tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda asosli qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu bois ta'lim jarayonida talabaning passiv bilim oluvchi subyektdan faol tadqiqotchi subyektga aylanishini ta'minlovchi didaktik va tashkiliy mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan ta'lim jarayonida talaba muammoni aniqlash, savol qo‘yish, gipoteza ilgari surish, empirik va nazariy ma'lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosa chiqarish kabi intellektual faoliyat turlarini izchil amalga oshiradi. Mazkur jarayonning samaradorligi esa ko‘p jihatdan

ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish shakllarining mantiqan asoslanganligi va ularning metodik jihatdan to‘g‘ri boshqarilishiga bog‘liq.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda samarali tashkiliy shakllardan biri sifatida kichik ilmiy izlanish guruhlarida ishlash alohida e’tiborga loyiqdir. Bunday guruhlar doirasida interaktiv munozaralar, kooperativ tadqiqotlar va situatsion seminarlar tashkil etilishi talabalar ilmiy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, shaxslararo muloqot, guruhiy qaror qabul qilish va reflektiv yondashuv ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shu jihatdan, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning mazkur shakllarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish va ularning imkoniyatlarini asoslash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Kichik guruhlar ish davomiyligi va funksional yo‘nalishiga ko‘ra qisqa muddatli hamda uzoq muddatli guruhlarga bo‘linadi. Funksional jihatdan muammo yechishga yo‘naltirilgan guruhlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular yuzma-yuz muloqot jarayonida talabalarning ilmiy fikrini bayon etish, dalillar asosida asoslash hamda bahs-munozara madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Guruhli faoliyat samaradorligi talabalar uslubiy xususiyatlari bilan ham bog‘liq. Tadqiqot amaliyotida “impulsiv” (tez fikr bildiruvchi, lekin chuqur tahlil yetishmasligi mumkin) va “reflektiv” (puxta o‘ylab fikr bildiruvchi, biroq sekin qaror qiluvchi) tiplar uchraydi. Ushbu turlar bir guruhda to‘g‘ri uyg‘unlashganda o‘zaro to‘ldiruvchi ta’sir yuzaga keladi va natijada ilmiy muloqot hamda intellektual o‘sish jadallashadi.

Guruhli izlanishni metodik jihatdan samarali tashkil etishda muammoning mazmuniy xususiyatlari va guruhning funksional vazifasiga asoslangan tasnif muhim ahamiyat kasb etadi. M.Abercrombie talabalarning guruhdagi ilmiy muloqotini faollashtirish maqsadida muammoning yechim talabiga qarab turli guruh formatlarini ajratishni taklif etadi. Jumladan, “buzz groups” erkin ilmiy munozarani tashkil etishga, “documentary groups” manbalarni tahlil qilish va yozma asoslashga, “syndicates” mikroguruhlarda loyiha bajarish va hisobot tayyorlashga, “self-assessing groups” esa ishtirokchilarning o‘z faoliyatini tahlil va baholashiga yo‘naltirilgan bo‘lib, shuningdek yirikroq “assotsiativ diskussiya” guruhlari ham qo‘llaniladi [1]. Bu tasnifning metodik qiymati shundaki, u guruh ishini “faqat muhokama” darajasida qoldirmay, ilmiy natija (yozma hisobot, tahlil, baholash) bilan yakunlashni talab qiladi.

Kichik guruhlar samarali bo‘lishi bilan birga quyidagi ayrim cheklovlarga ham ega:

-ayrim talabalar doimiy liderlikka intilib, guruh muvozanatini buzishi;

- ilmiy muammo noto‘g‘ri aniqlansa, izlanish natijasi sustlashishi;

- bahs shaxsiy munosabat tusiga kirib, ilmiy mazmundan chalg‘ish holatlari yuzaga kelishi. Shuning uchun guruhli ishlarda o‘qituvchining vazifasi - rollarni

muvozanatli taqsimlash, bahs me'yorlarini belgilash, muammo ifodasini aniqlashtirish va yakuniy natijani rasmiylashtirish (hisobot/tahlil)ni metodik jihatdan boshqarishdir.

Talabalar tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda diskussiya (bahs-munozara) alohida didaktik shakl sifatida muhimdir. Diskussiya talabaning fikrini aniq ifodalash, dalil keltirish, opponir qilish, boshqani tinglash va xulosani asoslash kompetensiyalarini rivojlantiradi [5]. Amaliyotda panel (ekspertlar muhokamasi), forum (auditoriya bilan savol-javobli muhokama), piramida (kichik guruhdan umumiy muhokamaga bosqichma-bosqich o‘tish) kabi formatlar keng uchraydi. Ushbu formatlarning umumiy metodik talabi - muhokama natijasini umumlashtirish va yakuniy xulosani dalillar bilan rasmiylashtirishdan iborat.

Tarixiy-pedagogik manbalarda universitet amaliyotida ilmiy bahsning (“disput”) o‘quv shakli sifatida qo‘llangani qayd etilib, u ilmiy tafakkurni rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qilgani ko‘rsatiladi [6]. Bu jihat diskussiyaning faqat kommunikativ emas, balki metodologik (ilmiy tafakkur) funksiyasini ham tasdiqlaydi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda kooperativ tadqiqot (cooperative research) shakli o‘qituvchi va talaba hamkorligini nazarda tutadi. Bu shaklda tadqiqotni rejalashtirish, ilmiy yo‘nalishni tanlash, kichik guruhlarda muhokama va muloqot yuritish jarayonlari o‘zaro bog‘langan holda kechadi. Natijada ilmiy faoliyat qisman individuallashtiriladi: talabaning shaxsiy tadqiqot qobiliyati va mustaqil fikrlash salohiyati rivojlanadi [2].

Kooperativ tadqiqot doirasida “student team research”, “research together” va “jigsaw/puzzle” kabi modellar uchraydi. “Student team research”da talabalar kichik guruh bo‘lib ilmiy masalani o‘rganadi, natijani tahlil qiladi va umumlashtiradi [3]. “Research together” modelida umumiy vazifa doirasida individual javobgarlik va jamoaviy hamkorlik uyg‘unlashadi; “jigsaw/puzzle” modelida esa har bir talaba ma’lum bo‘lakni chuqur o‘rganib, guruhga taqdim etish orqali umumiy bilim konstruksiyasini shakllantiradi. Ushbu modellar metodik jihatdan bosqichlilikni talab qiladi: maqsadni belgilash, vazifani taqsimlash, jarayonni nazorat qilish, oraliq muhokama va yakuniy natijani rasmiylashtirish.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda kichik guruhlarda ishlash, ilmiy diskussiya hamda kooperativ tadqiqot shakllari metodik jihatdan yuqori didaktik salohiyatga ega. Kichik guruhlar ilmiy muloqot, hamkorlik va refleksiyani faollashtirib, talabaning fikrini ifodalash va asoslash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Diskussiya formatlari (panel, forum, piramida) talabaning dalillash madaniyati, opponir qilish va ilmiy xulosani asoslash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kooperativ tadqiqot modellarida

esa jamoaviy mas'uliyat va individual hissani uyg'unlashtirish orqali izlanish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, guruhli shakllarda liderlikning muvozanatsizligi, muammoning noto'g'ri qo'yilishi yoki bahsning shaxsiy tus olishi kabi cheklovlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish o'qituvchining metodik boshqaruviga bog'liq. Demak, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish uchun mazkur shakllarni qo'llashda rollarni taqsimlash, bahs me'yorlarini belgilash, oraliq nazorat va yakuniy natijani rasmiylashtirish talablari metodik jihatdan qat'iy ta'minlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jurayev B.T. *Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi.* O'quv qo'llanma. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2022. – 326 b.
2. Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar.* O'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020. – 192 b.
3. Abercrombie, M.L.J.; Terry, P.M. *Talking to Learn.* Guildford: Society for Research into Higher Education, 1978.
4. Birmingham University. *The global university at the heart of an ambitious city.* Elektron resurs (rasmiy sayt materiali).
5. European Commission / EACEA / Eurydice. *The European Higher Education Area in 2018: Bologna Process Implementation Report.* Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018. – 330 p.
6. Padagogisches Wörterbuch. – Berlin: Volk und Wissen, 1987. – 432 p.